

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KITOBGA MUHABBATNI UYG'OTISH METODLAR

25-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Xudaynazarova Gulbahor Azamatovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobga muhabbatni shakllantirish, ularni muntazam mutolaaga jalb etish metodlari tahlil qilinadi. Kitobxonlik madaniyatining bolalik davridan boshlab rivojlantirilishi shaxs kamoloti va bilimga bo'lgan qiziqishning mustahkam poydevori ekani ilmiy va amaliy misollar bilan asoslab beriladi. Dars jarayonida, sinfdan tashqari tadbirlarda va oilaviy muhitda kitobga mehr uyg'otuvchi samarali usullar, o'yinlar, sahnalashtirish va interaktiv mashg'ulotlar orqali erishiladigan natijalar yoritiladi. Maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ota-onalar hamda pedagogika yo'nalishidagi mutaxassislar uchun foydali tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, kitobga muhabbat, kitobxonlik, mutolaa madaniyati, o'quvchilarni rag'batlantirish, tarbiyaviy metodlar, darsdan tashqari mashg'ulotlar, o'yinli metodlar, interaktiv o'qitish, oilada kitobxonlik

Annotation: This article analyzes methods for forming a love of books in primary school students and engaging them in regular reading. The fact that the development of a reading culture from childhood is a solid foundation for personal development and interest in knowledge is substantiated with scientific and practical examples. The results achieved through effective methods, games, staging and interactive activities that instill a love of books in the classroom, at extracurricular activities and in the family environment are highlighted. The article contains useful recommendations for primary school teachers, parents and specialists in the field of pedagogy.

Key words: primary school, love of books, reading, reading culture, motivating students, educational methods, extracurricular activities, game methods, interactive teaching, family reading

Аннотация: В статье анализируются методы привития любви к книгам у учащихся начальной школы и привлечения их к регулярному чтению. Формирование культуры чтения с детства является прочной основой для развития личности и интереса к знаниям, подкрепленного научными и практическими примерами. Особое внимание уделяется результатам, достигнутым с помощью эффективных методов, игр, ролевых игр и интерактивных занятий, которые способствуют развитию любви к книгам в классе, во внеклассных мероприятиях и в семейной обстановке. Статья содержит полезные рекомендации для учителей начальных классов, родителей и педагогических работников.

Ключевые слова: начальная школа, любовь к книгам, чтение, культура чтения, мотивация учащихся, образовательные методы, внеклассные занятия, игровые методы, интерактивное обучение, семейное чтение

Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamolotiga hissa qo'shish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichi bolaning dunyoqarashi, qiziqishlari va hayotiy pozitsiyasi shakllana boshlaydigan eng muhim davrdir. Shu jihatdan olganda, bolalarda kitobga bo'lgan mehrni uyg'otish, ularni mutolaaga jalb etish, kitobni do'st sifatida qabul qilishga o'rgatish muhim tarbiyaviy va pedagogik vazifadir.

Kitob – inson tafakkurini boyituvchi, axloqiy qarashlarini shakllantiruvchi, bilim manbai sifatida alohida o'rin egallaydi. Bolalikda o'qilgan kitoblar inson ongida chuqur iz qoldiradi va uning kelajakdagi shaxs sifatida shakllanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, kitobga muhabbatni uyg'otish bo'yicha samarali metodlarni qo'llash dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu maqolada aynan shu masala tahlil qilinib, kitobga qiziqishni oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar, dars va darsdan tashqari faoliyatdagi samarali usullar yoritib beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar. Karimova N. “Badiiy adabiyot va bolalar tarbiyasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. Bu asarda Badiiy adabiyot bolalarda estetik did, axloqiy fazilatlar va hayotiy qarashlarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Yosh bolalar uchun mo‘ljallangan asarlarning tili sodda, mazmuni qiziqarli bo‘lishi kerak, shunda ular mutolaaga qiziqadi. O‘qituvchi bolani kitob bilan tanishtiruvchi birinchi inson sifatida o‘zining kitobxonlik madaniyati bilan namuna bo‘lishi lozim. Badiiy asarlarni sinfda muhokama qilish orqali bolalarning muloqot madaniyati, fikrlash doirasi kengayadi. Rasulova M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlash metodikasi asarida esa boshlang‘ich sinfda o‘qituvchining metodik yondashuvi bolaning darsga bo‘lgan munosabatini, shu bilan birga kitobga bo‘lgan qiziqishini ham shakllantiradi. Darslarda o‘yinli usullar, ijodiy topshiriqlar, kitob asosida savol-javoblar qo‘llanilishi tavsiya etiladi. O‘quvchilarning o‘z fikrini erkin bayon qilishi uchun og‘zaki va yozma nutq bilan bog‘liq topshiriqlar, kitob asosida insholar yozdirish muhim sanaladi. O‘qituvchi va ota-ona hamkorligi o‘quvchining o‘quv motivatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. G‘ofurov D. “Pedagogik texnologiyalar va ularning dars jarayonidagi o‘rni” asarida Interaktiv pedagogik texnologiyalar (klaster, insert, aqliy hujum, rolly o‘yinlar) o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, ularni faol fikrlashga undaydi. Kitob asosida tashkil etilgan interaktiv darslar orqali o‘quvchilar faqat bilim emas, balki estetik zavq ham oladi. Innovatsion metodlardan foydalangan holda kitob matnini tahlil qilish o‘quvchining analiz qilish, sabab-oqibatni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. “O‘quvchi markazida o‘qitish” g‘oyasi bolalarning mustaqil fikrlashiga, shu jumladan mustaqil kitob o‘qishga asos yaratadi. pedagogika asoslarida bolalarni tarbiyalash va bilim berishda o‘qituvchining metodik mahoratining ahamiyatini qayd etadi. Uning fikricha, boshlang‘ich sinfda kitob o‘qishga muhabbatni shakllantirishning samarali usuli — o‘quvchilarni ijodiy ishlarga jalb qilishdir¹

Mavzuning dolzarbligi: Yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma’naviy boy va tafakkuri yuksak insonlar qilib tarbiyalashda kitobning o‘rni beqiyosdir. Afsuski, zamonaviy axborot oqimining kuchayishi, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy

¹ Mavlonova R. “Pedagogika asoslari”. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.

tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida bolalarning kitobga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada pasaymoqda. Bu esa ularning fikrlash doirasi, tafakkuri va ijodiy salohiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ta’kidlaganidek, badiiy adabiyot bolalarda estetik did, axloqiy fazilatlar va hayotiy qarashlarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Kitoblar orqali o‘quvchilar nafaqat bilim oladi, balki ularning ruhiy rivojlanishi ham amalga oshadi.²

Ayniqsa, boshlang‘ich sinf davri bolalarning o‘quv faoliyati va axloqiy qadriyatlari shakllanadigan muhim bosqich bo‘lib, aynan shu pallada ularda kitobga mehr uyg‘otish, mutolaaga odatlantirish orqali mustahkam bilim asoslarini yaratish mumkin. Shu sababli, mazkur yoshdagi o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, kitob o‘qishga qiziqishni oshirishga qaratilgan metodlar va yondashuvlar pedagogik nuqtai nazardan nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Ushbu mavzuni o‘rganish orqali o‘qituvchilar va ota-onalarga bolalarda kitobga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirishda samarali yo‘llarni tavsiya etish, mutolaaga jalb etish uslublarini takomillashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish va mutolaaga bo‘lgan mehrni uyg‘otishning samarali usullarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi:

- Tahlil va umumlashtirish metodi – mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, o‘quv dasturlari, metodik qo‘llanmalar o‘rganilib, eng samarali yondashuvlar ajratib olindi.

² Karimova N. “Badiiy adabiyot va bolalar tarbiyasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

- Kuzatish metodi – boshlang‘ich sinf darslarida va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning kitobga bo‘lgan munosabati, ishtirok faolligi kuzatildi.
- So‘rovnoma va suhbat usuli – o‘quvchilar, ularning ota-onalari va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan suhbatlar o‘tkazilib, kitobxonlikka bo‘lgan munosabat va mavjud muammolar aniqlashtirildi.
- Eksperiment (tajriba) metodi – tanlab olingan sinflarda kitobga qiziqishni oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlar sinovdan o‘tkazildi.
- Taqqoslash va tahlil qilish – eksperimentdan oldin va keyingi bosqich natijalari o‘zaro taqqoslab, samaradorlik darajasi baholandi.

Tadqiqot jarayonida olinadigan natijalar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobga bo‘lgan mehrni shakllantirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu metodologiya kitobxonlik madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiluvchi amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida kitobxonlikka bo‘lgan munosabat, mutolaaga qiziqish darajasi va kitob o‘qish odatlari o‘rganildi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning aksariyati (taxminan 65–70%) kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini faqat dars doirasida namoyon qilmoqda, darsdan bo‘sh vaqtda esa kitob o‘qishga sust munosabatda bo‘lishmoqda. Shu bilan birga, ota-onalarning kitobxonlikdagi roli va oiladagi muhit ham o‘quvchilarning mutolaa madaniyatiga sezilarli darajada ta’sir qilayotgani kuzatildi.

Eksperimental sinfda bir oy davomida quyidagi metodlar asosida kitobga muhabbat uyg‘otishga qaratilgan faoliyatlar amalga oshirildi:

- Har kuni 10 daqiqalik “ertalabki mutolaa” mashg‘ulotlari;
- Qiziqarli hikoyalarni teatr ko‘rinishida sahnalashtirish;
- “Men o‘qigan eng qiziqarli kitob” mavzusida og‘zaki chiqishlar;
- Kutubxonaga guruh bo‘lib tashriflar;

- Rasmlar asosida hikoya tuzish va o‘qigan kitoblari bo‘yicha ijodiy ishlar tayyorlash.

Ushbu metodlar qo‘llangan sinflarda o‘quvchilarning kitobga bo‘lgan munosabatida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Jumladan:

- O‘quvchilarning 80% dan ortig‘i mutolaa jarayoniga faol jalb bo‘ldi;
- Kitob o‘qish odatini shakllantirish boshlangan;
- O‘quvchilarning nutqi, so‘z boyligi va ifodali o‘qish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi;
- O‘z fikrini mustaqil bayon qilish va ijtimoiy faollik darajasi oshdi.

Natijalarga ko‘ra, boshlang‘ich sinf bosqichida o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri tanlangan metodlar orqali bolalarda kitobga mehr uyg‘otish va ularni mutolaaga odatlantirish mumkinligi isbotlandi. Kitobxonlikka oid faoliyatlarni o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar va interaktiv usullar bilan uyg‘unlashtirish ularning qiziqishini ancha oshirganini ko‘rsatdi.

Xulosa va takliflar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish jarayoni tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan yondashuvni talab etadi. Dars jarayonida ham, darsdan tashqari faoliyatlarda ham mutolaaga qaratilgan interaktiv, ijodiy va rag‘batlantiruvchi metodlardan foydalanish o‘quvchilarda kitobxonlikka bo‘lgan ijobiy munosabatni kuchaytiradi. Kitobga mehr uyg‘otilgan o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi, tasavvuri, axloqiy qarashlari va ijodiy salohiyati faol rivojlanadi. Bu esa ularning ta’limdagi muvaffaqiyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Takliflar shuni nazarda tutadiki, Boshlang‘ich sinf darslariga qisqa, lekin muntazam “mutolaa va fikr almashish” daqiqalarini joriy etish; Har bir sinfda o‘quvchilarning yoshiga mos badiiy adabiyotlar bilan boyitilgan kichik kutubxona tashkil etish; Kitobxonlik haftaliklari, sahnalashtirish, kitob taqdimotlari kabi ijodiy loyihalarni yo‘lga qo‘yish; Ota-onalar uchun kitobxonlikning ahamiyati haqida seminar va suhbatlar o‘tkazish, bolalarga kitob o‘qib berish an’analari shakllantirish; O‘quvchilar o‘rtasida “Eng faol kitobxon”, “Kitob haqida eng yaxshi taqdimot” kabi rag‘batlantiruvchi

tanlovlarni doimiy tashkil etish; Pedagoglar uchun boshlang‘ich sinflarda kitobxonlikni rivojlantirishga oid metodik qo‘llanmalar yaratish va tarqatish.

Mazkur takliflarning amalda qo‘llanilishi kitobxonlik madaniyatining erta shakllanishiga, o‘quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, ma‘naviy boy shaxslar etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimova N. “Badiiy adabiyot va bolalar tarbiyasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Rasulova M. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlash metodikasi”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. G‘ofurov D. “Pedagogik texnologiyalar va ularning dars jarayonidagi o‘rni”. – Samarqand: Zarafshon, 2019.
4. Yusupova D. “Kitobxonlik madaniyati: nazariya va amaliyot”. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2021.
5. Mavlonova R. “Pedagogika asoslari”. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
6. Qo‘chqorova N. “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi”. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–3271-sonli qarori. – 2017-yil, 13-sentyabr.
8. Internet manbasi: www.kitob.uz – O‘zbekiston bolalar elektron kutubxonasi. (murojaat sanasi: 2025-yil, 10-may).
9. Sharipova Z. “Mutolaa orqali estetik tarbiya berish usullari”. // Boshlang‘ich ta‘lim, 2021, №4.
10. Qodirova N. “Kitobga muhabbat – barkamol avlod tarbiyasining asosi”. // Ma‘naviyat va ma‘rifat jurnali, 2022, №2.